



XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONGA KO'CHIRILGANLARNING MILLIY ETNIK TARKIBI

Qo'ziboyev Sherxon Burxon o'g'li

Navoiy innovatsiyalar universiteti,
Tarix yo'nalishi I bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18707191>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 15- fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 18- fevral 2026 yil

KEY WORDS

Turkiston, ko'chirish siyosati,
Rossiya imperiyasi,
mustamlakachilik, migratsiya,
milliy-etnik tarkib, demografik
jarayonlar, aholi joylashtirish,
etnik guruhlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga amalga oshirilgan ko'chirish siyosati va uning natijasida shakllangan ko'chirilgan aholining milliy-etnik tarkibi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati doirasida Turkistonga ko'chirib keltirilgan aholi guruhlari, ularning etnik mansubligi, joylashtirish hududlari va mahalliy aholi bilan ijtimoiy-demografik munosabatlari tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi.

Turkiston oblasti tuzilguniga qadar (1865 yil 2 mart) Orenburg va G'arbiy Sibir general gubernatorliklarining chegaralaridan tortib to Toshkent vohasigacha bo'lgan shaharlarga, harbiy istehkomlar atrofiga Rossiyadan aholi ko'chib kela boshlagan edi. Kazalinsk, Oqmachit (Perovsk), Turkiston, Verniy, Ayagoz (Sergiopol), Jarkent, To'qmoq, Qorako'l, Pishpak, Merki (Merke), Avliyoota, Talas, Chimkent shaharlariga va ularni bog'lovchi asosiy yo'llar bo'yida barpo etilgan hamda bo'lajak posyolkalarga rus, ukrain, belorus aholisi ko'plab kelib bo'lgan edi. Ural, G'arbiy Sibirdan tashkiliy ravishda ko'chirilgan kazaklar esa Yettisuvning va Issiqko'lning Xitoy bilan bo'lgan chegaralariga yaqin hududlarda joylashtirildi.

Tabiiyki, rus qo'shinlari ketidan kelganlar harbiy ma'muriyat, keyinchalik harbiy-xalq ma'muriyati yordami bilan shaharlarda, ayniqsa qishloq joylarda juda yaxshi imkoniyatlarga va katta imtiyozlarga ega bo'lishdi. Masalan, 1865-1868-yillarda Turkistonga ko'chib kelgan rus dehqonlarining har bir oilasi 100 desyatinagacha (109 gektar) dehqonchilikka yaroqli yerga va keng yaylovlarga ega bo'ldi hamda barcha to'lovlardan ozod etilgan edi. O'sha yillarda ko'pgina rus savdogarlari ozgina mablag' bilan bu yerda ish boshlab (asosan spirtli ichimliklarni ishlab chiqish va sotish), tez orada nihoyatda boyib ketishdi. Shulardan biri – D. L. Filatov Toshkentda, Samarqandda birinchi vino-arog zavodlarini ham qurdi.

Mahalliy aholidan tortib olingan dehqonchilikka yaroqli yerlar, yaylovlar, xususan, shaharlarni bog'lovchi yo'llar bo'yida, rus dehqonlariga berilishi natijasida, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori 1891-yilda yozganidek, "hozirgi vaqtda Sibirdan Toshkentgacha butun pochta trakti rus seleniya (qishloq)laridan o'tmoqda, faqat Chimkentdan 84 verst masofadagi yo'l bo'yida rus selniyalari yo'q". Gubernator bu yerda Vannovka, Fogolevo, Chernyayevskoye va bir qator boshqa rus seliniyalari nima sabab bilan sanab o'tmaganligini tushunish qiyin.

XIX asrning 70-yillarida Turkiston general-gubernatorligining hududi Qo'qon xonligini yo'q qilish, Buxoro amirligining, Xiva xonligining anchagina hududlarini bosib olish hisobiga juda kengaydi. Metropoliya ehtiyojlariga foydali Farg'ona vodiysi, Zarafshon vohasi, Amudaryo havzasi mustamlakachilar ixtiyoriga o'tdi. O'lkada mustamlakachi tizimni mustahkamlash, tabiiy va ishlab chiqarish resurslaridan metropoliya manfaatlarida mumkin qadar faolroq foydalanish, sobiq ulug'rus mafkurasini barqarorlashtirish, rus, umuman, nasroniy aholini ko'plab ko'chirish zaruriyati asoslandi. Astraxan, Voronej, Saratov, Samara-Orenburg, Xarkov guberniyalarida iqtisodiy, ijtimoiy ahvol nihoyatda og'irlashgani sababli rus, ukrain va nemis dehqonlari Turkistonga ko'chish borasida tashkiliy va moddiy yordam berildi.

Albatta, Rossiya imperiyasi va mustamlaka ma'muriyati o'lkaga xo'jalik jihatidan baquvvat dehqonlar ko'chishini xohlagan edilar. Biroq, yetmishinchi va undan keyingi yillarda tashkiliy tarzda ko'chirtirilgan dehqonlar orasida, ayniqsa, o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlar orasida bundaylari juda ozchilikni tashkil etishgan.

Shuni hisobga olib, imperiya hukmron mahkamalari Turkistonga ko'chib borayotgan pravoslav e'tiqodiga mansub aholiga mumkin qadar ko'proq ko'maklashishga harakat qilishdi. Bu borada harbiy xizmat muddatini o'tab bo'lgan, ya'ni Turkistonda yashashni xohlagan soldat va zobitlar ustuvor e'tiborga sazovor bo'lishgani tabiiydir.

Shu bilan birga, Turkistonni mustamlakaga aylantirishning birinchi bosqichida, aholini ko'chirish jarayoni, bir qaraganda, ancha tartibsiz, stixiyali bo'lgandek ko'rinsa-da, Rossiya imperiyasining hukmron doiralari:

Birinchidan, bu yerga Qrim, Kavkazorti, Volgabo'yi musulmon aholisi ko'chib kelmasligini;

Ikkinchidan, chegara hududlarga, rus garnizonlari yaqiniga hamda magistral yo'llar bo'yiga joylashtirilayotgan kazaklar va rus dehqonlarining har bir oilasiga o'rta hisobda 10-15 desyatnadan ekinbob yer berilishini, ular pul o'lponlari va turli majburiyatlardan ozod etilishini, lekin zarur bo'lib qolganida o'z oralaridan muayyan miqdorda qurolli odamlarni berishlarini;

Uchinchidan, mustamlakachi ma'muriyat bug'doy ekishga yaroqli yerlarni oldindan ekspropriatsiya qilishardi yoki ajratib olib, ularni bir qator imtiyozlar bilan ko'chirib keltirilgan ruslar ixtiyoriga berilishini qattiq nazorat qilishar edi.

Chorizm ko'chirish siyosatining ulug'rus mezonlari shunda ham namoyon bo'lganki, turli yillarda Turkistonga majburiy ko'chirilgan nemislar, xristian ayirmachilari (raskolniklar) soliq-o'lpon to'lashdagi ko'plab yengilliklardan va haydalma yer bilan ta'minlashdagi imtiyozlardan ham mahrum edilar.

XIX asrning 60-yillaridan keyin imperiya hukmron doiralarida metropoliyadan ko'chirilganlar yer bilan ta'minlangan va yana yuz minglab ko'chirilganlar oladigan yerlarni xususiy mulk qilib berish to'g'risidagi masala ancha uzoq vaqt qizg'in muhokama qilingandi. Lekin Ettisuv, Sirdaryo oblastlarini boshqarish to'g'risidagi 1867-yil 11-iyuldagi Nizom loyihasida agrar munosabatlar borasidagi masala uncha yoritilmagani, birinchi general-gubernator K. P. Kaufmanga esa «mazkur Nizom loyihasida ko'rsatilgan asoslar qo'llanib, unda o'lka tuzumi uchun foydali va zarur deb e'tirof etilgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish» huquqi berilgani sababli yer mulki to'g'risidagi masala deyarli 15 yil davomida general-gubernatorning ko'rsatma xarakteridagi farmoyishlariga muvofiq, lekin ko'pincha ancha erkin – rus amaldorlari ixtiyoricha hal qilib kelindi.

Bu, ko'proq kazaklar va rus dehqonlarini Ettisuvda, Sirdaryo oblastining Chimkent, Avliyotota uyezdlaridagi sug'orma mintaqada joylashtirish hamda yer bilan ta'minlash amaliyotiga xos edi-ki, bu yerda tub aholi dasht va tog'lik rayonlarga zo'rlik bilan surib chiqarilib, ularning hatto yaylov yerlari ham tortib olinardi. Ayni mahalda, birinchi general-gubernator ko'chirib keltirilgan ruslarga yerlarni sotib olishga maxsus farmoyish bilan ruxsat berdi.

Mustamlaka ma'muriyati shu tariqa bu yerda asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan, yerdan jamoa bo'lib foydalanish bilan uyg'unlashgan yerdan xususiy foydalanishni shakllantira boshladi. Bunday ruxsat tub aholiga nisbatan zo'ravonlik qilish uchun katta imkoniyatlar yaratib bergani tushunarli, albatta. Kaufman ham, ko'plab boshqa yuqori martabali mustamlakachi amaldorlar, rus armiyasi zobitlari ham tezda yirik zamindorlarga aylanib qolganliklari tasodifiy emasdi.

Podsho xonadonga, imperatorning yaqin qarindoshlariga xususiy mulk sifatida qarashli bo'lgan «podsholik yer-mulki» esa tez ko'payib borardi. Bunday yer-mulk Turkistonning barcha oblastlarida, shu jumladan, Kaspiyorti oblastida ham mavjud ediki, bu yerda juda katta Murg'ob podsholik yer-mulki barpo qilingandi.

Yoritilayotgan mavzuga oid arxiv materiallarini, e'lon qilingan asarlarni o'rganish va tadqiq qilish imperiya hukmron doiralari 1886-yil 12-iyunda «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida» Nizomni qabul qilguniga qadar yerga mulkchilik shakllari to'g'risidagi masala ataylab tugal hal etilmagan, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu borada biron-bir qonunning yo'qligi mustamlaka ma'muriyatiga yerga mulkchilikning turli shakllarini u yoki bu sharoitga muvofiqlashtirmay, o'z ixtiyoricha qaror toptirish imkonini berardi. Kaufmanning o'zi ko'proq yerdan jamoa bo'lib foydalanish tarafdori edi, lekin u Turkiston yerlarini avval davlat mulki deb e'lon qilib, so'ng tub aholiga yer maydoniga ko'ra obrok solig'i evaziga doimiy foydalanish uchun berish kerak, deb hisoblardi.

1883-yilda imperator topshirig'i bilan Ichki ishlar vaziri kengashining a'zosi, maxfiy maslahatchi Girs tomonidan Turkistonning ahvoli taftish qilindi. Girs mintaqadagi ma'muriy boshqaruv, harbiy siyosat bilan bir qatorda agrar masalaga ham jiddiy e'tibor qaratdi. U «o'troq aholi tasarrufida haqiqatda bo'lgan yerlarni, belgilangan soliq va yulponlardan ozod qilmagan holda, unga to'la mulk huquqi bilan birlashtirib qo'yish lozim», deb taklif qilgandi. Ko'chmanchi aholi tasarrufida bo'lgan yerlarni esa Girs, 1868-yilda Kaufman tomonidan ta'riflanganidek, davlat yerlari deb e'lon qilinishini taklif etdi. Shu va bir qator boshqa takliflarni hamda Girs ishlab chiqqan Turkistonni boshqarish to'g'risidagi loyihani ko'rib chiqish uchun N. Ignatyev raisligidagi komissiya tuzildi.

Graf Ignatyev komissiyasi Girs takliflarini ko'rib chiqib, Kaufman va Kolpakovskiyning yuqorida eslatib o'tilgan mulohazalari foydasiga aniq yon bosib, jiddiy tuzatishlar kiritdi. N. Ignatyevning izohnomasida, uning rahbarligidagi komissiya «o'troq mahalliy aholiga ularda haqiqiy foydalanishda bo'lgan yerlarga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish huquqini bergan holda, bu yerlarni davlatniki deb e'tirof etadi», deb ko'rsatilgan. Girs bilan N. Ignatyev komissiyalarining yondashuvlaridagi farq shundaki, birinchisi ko'chmanchilar yerlarini davlat mulki deb e'lon qilishni taklif etgan bo'lsa, ikkinchisi tub o'troq aholi yerlarini ham davlatniki deb hisoblashni ilgari surdi. Turkiston tub xalqlari uchun hayotiy muhim bo'lgan bu masala xalqlarning o'zi tomonidan emas, ya'ni Dehqonchilik va yer tuzish Bosh boshqarmasi tomonidan ham emas, balki Rossiya Harbiy vazirligi tomonidan tugal hal etilgani diqqatni tortadi. Bu vazirlik obrok o'lponi va tub aholi yerini davlatniki deb e'lon qilishga qarshi e'tiroz

bildirdi, lekin ko'chmanchi aholi yerlarini davlatniki deb hisoblashga rozi bo'ldi. Ko'chmanchilarning yerlarini davlatniki deb e'lon qilinishi esa Turkiston va Dasht o'lkadagi ko'p asrlik ko'chmanchi chorvachilikning saqlanib qolishini xavf ostiga qo'ydi. Shunday bo'lsa-da, imperator tomonidan 1886-yil 12-iyunda imzolangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom"ga tegishli modda kiritildi.

Mustamlaka boshqaruvi tizimi uchun, ko'p millatli tub aholining ijtimoiy ahvoli uchun ham tegishli bo'lgan siyosiy, adliyaviy va boshqa jihatlar notayin bo'lgani holda mustamlakachi ma'muriyat harbiy-politsiya rejimi o'rnatilganidan boshlab tub aholi huquqlarini, deyarli barcha manfaatlarini oshkora inkor etib, poymol qilib keldi. Ko'chirib keltirilgan ruslarni Turkiston shaharlarida, ayniqsa, qishloq joylarida qishloq aholisini siqishtirish, uning yer-mulkini talon-taroj qilish evaziga imkoni boricha durustroq joylashtirishga intildi.

1886-yil 12-iyunda qabul qilingan "Nizom"da Turkistonning tub aholisiga nisbatan qo'yilgan talablar aslo bo'shashtirilmagan, aksincha, dehqonlar va ko'chmanchilar tasarrufida qoldirilgan yerga solinadigan soliq oshirilgan va har bir o'tovdan olinadigan soliq joriy etilgandi. "Nizom"da Turkistonda faqat ruslar maxsus vasiqa bilan mustahkamlab, tub millatlar aholisi uchun esa "odatiy ravishda" yer sotib olish tartibi belgilangan edi. Ko'chmanchilar esa yerni faqat ijaraga berish huquqiga ega edilar.

Birinchi rasmiy "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom"ning mazmunidan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, garchi o'lkani mustamlaka qilishning asosiy mezonlari, shu jumladan, ko'chirib keltirilgan ruslarni ko'plab joylashtirish yo'li bilan mustamlakaga aylantirish 1881-yil 10-iyundagina «Dehqonlarni bo'sh davlat yerlariga ko'chirish to'g'risida muvaqqat qoidalar»da qisman ta'riflangan bo'lsa-da, Rossiya imperiyasi va Turkistonning, Dasht general-gubernatorliklarining ma'muriyati barcha sohalarda ayni buyukdavlatchilik-shovinistik va mustamlakachilik maqsadlariga rioya qilishgan hamda shunga muvofiq harbiy, ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy choralarni amalga oshirishgan.

Ular orasidan quyidagilarni ko'rsatib o'tish darkor:

Faqat pravoslav dinidagi ruslarni emas, balki raskolniklarni ham (ichki ishlar vazirligining ruxsati bilan) ko'chirishga yo'l qo'yildi;

Rossiyadan ko'chirilganlar uchun ko'zda tutilgan imtiyozlar va yengilliklar Turkiston harbiy okrugidan zaxiraga chiqarilgan, pravoslav quyi amaldorlariga ham taalluqli qilib qo'yildi;

Ko'chirib keltirilganlar dastlabki 5 yil ichida har qanday o'lpandan to'liq, keyingi 3 yilda esa yarmiga ozod qilindi;

Ko'chirib keltirilganlardan 15 yoshdan katta bo'lganlari harbiy majburiyatdan ozod etildi.

Rus dehqonlarining ushbu qoidalar bo'yicha Turkistonga ko'chirilishining ixtiyoriyligini namoyish etishning tashqi ko'rinishidan samarali usullaridan biri joylashtirish ehtimol tutilgan joylarga turli qishloqlardan vakillarni yuborish edi. Vakillar, hatto Shimoliy Eronga ham yuborildi, lekin bunday manzillarga «imperiya maqsadlari uchun yaroqsiz unsurlar»ni ko'chirishga yo'l qo'yimaslik qattiq nazorat qilinardi.

Tub aholi zich joylashgan hududlarda rus qishloqlarini barpo etish uchun ko'pincha mustamlaka ma'muriyati ko'chiriluvchilarni joylashtirish bo'yicha ko'plab tashvishlarni o'z zimmasiga olishga majbur edi. Masalan, Sirdaryo oblastining Avliyoota uyezdiga ko'chirib keltirilgan ruslarning katta guruhidan quyidagi mazmundagi yozma majburiyat olingan: «Olingan yerlarni ko'rdik, ma'qulladik hamda o'zimiz uchun qulay deb hisoblaymiz. Usadba

yerlari sug'orilmasligi bizga ma'lum, shu sababli ko'chirish boshqarmasiga suv bilan ta'minlash, sug'orish, ariqlarni o'tkazish, obod qilish bo'yicha da'vo qilmaslik majburiyatini olamiz .

Asosiy qism. Imperiya Dehqonchilik va davlat mulki vaziri Yermolov bu nuqtayi nazarni ifodalab quyidagilarni qayd etadi: «Turkistonni Rus imperiyasi mustamlakasiga aylantirishning g'oyat sekin borayotgani, asosan, xazinaning bevosita ixtiyorida rus kishilarini rejali ravishda joylashtirishga mo'ljallangan yer fondi yo'qligi va tub aholi ega bo'lgan yer miqdori butkul aniqlanmaganligi bilan izohlanadi». Shu sababli Yermolov Turkistonning barcha oblastlarida ko'chmanchilar uchun ortiqcha bo'lgan yerlarni aniqlash, ularni tortib olib, ko'chirib keltirilgan ruslarga berishni taklif etdi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi, ayniqsa, Turkistondagi bosqinchilik va aholini ko'chirish rejalariga boshidan asos qilib olingan mezon — mustamlakachilik va buyuk davlatchilik mezoni Rossiya imperiyasining agrar munosabatlar, Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarni mintaqada joylashtirish masalalari bo'yicha keyingi hujjatlarida ancha aniq, asosli va qat'iyroq aks etdi.

Bu, xususan, shu bilan ham tasdiqlanadiki, rus dehqonlariga Ural ortiga, shu jumladan, Turkistonga ham erkin ko'chib borishga ruxsat berilgandi. Biroq, endi ko'chib boradigan rus oilasiga Turkiston oblastlarida, ayniqsa, Farg'ona va Samarqand oblastlarida beriladigan yer maydoni ilgari ko'chib kelganlar olganiga ko'ra kamaytirilgan edi. Bunday sharoit vayronagarchilikdan omon qolish istagi bilan Turkistonning Yettisuv, Kaspiyorti, Sirdaryo oblastlariga hamda Dasht o'lkaga ko'chib kelgan rus dehqonlari soni ko'payishiga olib kelgani tabiiy.

Rossiyadan Turkistonga ko'chirib keltirish harakati keskin kuchayishi bilan faqat Yettisuv, Sirdaryo oblastlarida emas, balki Farg'ona, Kaspiyorti, Samarqand (1886-yilgacha Zarafshon okrugi) oblastlarida, shuningdek, Buxoro amirligi, Xiva xonligidan tortib olingan hududlarda ham rus qishloqlarini imkoni boricha tezroq barpo etishga intilgan mustamlakachi ma'muriyatning da'vatlari ham bunga ancha ko'maklashgandi. 80-yillardayoq beriladigan yer maydonlari, soliq-o'lpon va boshqa yengilliklar miqdori, ularningamal qilish muddatlari vaqti-vaqti bilan qisqarib bordi, biroq ko'chirib keltirilgan ruslar, ayniqsa qishloq aholisining badavlat hayotini va boyib borishini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan miqdorda qoldirildi.

Shu munosabat bilan qayd etish zarurki, imperiya hukmron doiralari Turkistondagi konkret vaziyatdan qat'i nazar pravoslav rus fuqarolarini yer bilan eng ko'p ta'minlash va ular uchun har qanaqa imtiyozlarni saqlab qolishga e'tibor bergan. Chunonchi, 1881-yilda va 1883-yilda qabul qilingan qoidalarda imperiya hukumati nasroniy dehqonlarni ko'chirish, yer maydoni me'yorini ko'chib borayotgan oila boshiga 9 desyatinaga tushirish hamda haydalma uchastka 10 yildan so'ng, har yili ekin ekish sharti bilan uning mulkiga o'tish imkoniyatini nazarda tutgan bo'lsa, 1886-yil 12-iyundagi qoidalar bilan «faqat pravoslav rus fuqarolari»ni Turkistonga ko'chirish mumkin bo'lib qoldi. Endi yer qancha berish imkoni bo'lsa, shuncha, biroq ko'chirib keltirilgan oiladagi har bir ishlovchi boshiga 10 desyatinadan ortiq bo'lmagan miqdorda beriladigan bo'ldi; ko'chirib keltirilganlar dastlabki 5 yil ichida yer solig'idan ozod etildi, keyingi yillarda esa shu soliqni yarim miqdorda to'laydigan qilindi.

Biroq, na Rossiyaning hukmron doiralari, na ichki guberniyalar hokimiyat organlari krepostnoylik huquqining bekor qilinishi oqibatlarini bartaraf eta olmaganliklari bois, metropoliyada kapitalistik xo'jalikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, usullari belgilanishi munosabati bilan Rossiya imperiyasi Turkistonga va Dasht o'lkaga rus dehqonlarini, boshqa

ba'zi tabaqa vakillarini ko'chirish ko'lamini kengaytirishga qaror qildi. Shuningdek, faqat pravoslav rus fuqarolarini emas, balki Rossiya fuqarosi bo'lgan boshqa nasroniylarni ham ko'chirishga ruxsat berish maqsadga muvofiq deb topildi. Shu maqsadda, Aleksandr III 1889-yil 13-iyulda «Qishloq obivatellari yoki meshchanlarni davlat yerlariga ko'chirish va avvalgi yillarda ko'chirilgan shaxslarni muayyan tabaqaga biriktirish tartibi to'g'risida» qonuni imzoladi. Biroq aftidan, Rossiya hukmron doiralari tub aholining bir necha kuchli qo'zg'olonlaridan keyin, Turkistondagi, umuman, Markaziy Osiyodagi o'z mavqeyi uchun xavotir bo'lib, yangi qoidalarni amalga kiritdi. Bu qoidalarda ushbu mustamlakalarga mulkiy va xo'jalik jihatdan ta'minlangan nasroniy dehqonlarni ham ko'chirish nazarda tutilgandi. Natijada Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarning Turkiston va Dasht o'lkasining faqat ko'chmanchi emas, balki tub o'troq aholisiga nisbatan ham oshkora mustamlakachilik bedodligi cheksiz kuchayib ketdi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida 1873-yilda tuzilgan bitimga binoan Buxoroda Rossiya imperatorining Siyosiy agentligi tashkil qilinib, Amudaryo flotilyasi, bir qator garnizonlar, bojxonalar barpo etildi va Chorjo'y, Yangi Buxoro (Kogon), Karki, Patta-Hisor, Termiz shaharlariga, keyinchalik temir yo'l stansiyalariga rus aholisi ko'plab ko'chirildi. Xuddi shunday harakatlar 1874-yilda tuzilgan Kaspiyorti o'lkasi (1882-yilda oblastga aylantirilgan) hududida, xususan, Krasnovodsk, Ashxobod, Murg'ob, Kushka va boshqa shaharlarda, garnizonlarda, faol olib borildi.

Shu tariqa Rossiya imperiyasi va Turkiston ma'muriyati XIX asrning 90-yillarigacha o'lkaning barcha yirik, o'rtacha shaharlarida, Afg'oniston, Eron va Xitoy bilan chegaralar yaqinida harbiy garnizonlarni, kazaklarning stanitsalarini tashkil qilibgina qolmasdan, balki nasroniy e'tiqodga mansub rus, ukrain, belorus dehqonlarni ko'chirish ishini keng ko'lamda yo'lga qo'ydi. 90-yillarning boshida Turkistonda rus (ukrain, belorus) aholining soni 160 mingdan oshdi. Shulardan 13 foizi shaharlarda, 87 foizi 116 posyolkalarda va temir yo'l stansiyalari atrofida yashagan. Eng ko'p rus aholi Yettisuv oblastida (75 ming kishi) va Sirdaryo oblastida (38 ming kishi) joylashgan edi. Samarqand oblastida 10 posyolka (2,5 ming kishi), Farg'ona oblastida 7 posyolka (1,9 ming kishi), Kaspiyorti oblastida 19 baliqchi va qishloq joylaridagi posyolkalar (11 ming kishi) bo'lgan.

Ko'chiruvchilik harakatining asosiy yo'nalishlari 60-80-yillarda Yettisuv, Kaspiyorti, Sirdaryo oblastlariga qaratilgan bo'lsa-da, Farg'ona va Samarqand oblastlariga ko'chib kelayotgan rus aholining soni tobora ortib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda edi. Buni Turkiston ma'muriyati, rossiyalik sanoatchilar va savdogarlar Farg'ona vodiysida, shuningdek, Samarqand havzasida paxtachilikni, ipakchilikni yanada rivojlantirish uchun intilganliklari bilan izohlash mumkin.

Metropoliyadan ko'chib kelgan aholini, birinchi navbatda ruslarni qo'llab-quvvatlash, savdo-sotiq ishlarida, ko'chmas mulkka ega bo'lishda yordamlashish, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish uchun sug'oriladigan yer hamda yaylovlar bilan ta'minlash, soliqlardan, turli to'lovlardan ozod qilish kabi chora-tadbirlar bu aholini tub aholiga nisbatan siyosiy, ijtimoiy, xo'jalik ustunligini ta'minlashi kerak edi, umuman, bu maqsadga to'liq erishildi deb xulosa chiqarish mumkin.

Iliq iqlimga, juda ko'p boyliklarga, hosildor yerlarga ega Turkiston haqidagi xabar Rossiyada ilgari ham keng tarqalgan bo'lib, bu o'lkaga ko'plab savdogarlar, sanoatchilar, qashshoq ishchilar, dehqonlar ko'chib kelishiga xizmat qildi. Rossiya imperiyasi tomonidan

ko'chiruvchilik masalasi bo'yicha ilk bor 1881-yilda va keyin 1883, 1886, 1889-yillarda qabul qilingan maxsus qonun-qoidalarda Turkistonga rus aholini ko'chish harakatini kengaytirdi. Shu sababli, masalan, Yettisuv oblastida birgina 1883-yilda 36 rus posyolkalari tuzildi. Undan tashqari imperiyaning ichki guberniyalarida qurg'oqchilik oqibatida ocharchilik paydo bo'lgan yillarda u yerlardan o'zboshimchalik bilan stixiyali tarzda ko'chib kelganlar faqatgina 1892-1893-yillarda Sirdaryo oblastida 22 posyolkani barpo qilishgan va 1900-yilgacha posyolkalarning soni 52 taga yetdi. Birgina Toshkent uyezdida 90-yillarda 10 dan ortiq rus va 1 ta nemis posyolkalari tuzildi. Sirdaryo, Samarqand, ayniqsa, Farg'ona oblastlariga bu davrlarda ko'chib kelganlarining aksariyati shaharlarda va tog'-kon sanoati, neft qazib chiqaruvchi korxonalar atrofida joylashgan. Farg'ona oblastida sug'oriladigan yer kamligi, tub aholining zich joylashganligi sababli ko'chib keladigan rus dehqonlari oilasiga 2-3 desyatinadan sug'oriladigan yer berilishi mumkin, deb hisoblandi. Bunday yer maydoni juda kichkina va rus dehqonlarining farovon yashashiga yetarli emas, deb baholansa ham vodiya bu vazifani hal qilish qiyin edi, chunki mahalliy dehqonlarning aksariyati 1 desyatinagacha sug'oriladigan yerga ega bo'lgan. Bundan tashqari, rus dehqonlar paxtachilik haqida tasavvurga ega bo'lganidan keyin ham paxta yetishtirish bilan shug'ullanishni xohlamasdan, o'z yerlarini ijaraga berishar edi.

Shunday bo'lsa-da, Turkiston ma'muriyati o'lkaga ko'chib kelayotgan rus aholining kattagina qismini aynan Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand oblastlarining shaharlaridagina emas, balki qishloq hududlarida joylashtirishga intilgan. Bu intilish Andijon qo'zg'olonidan keyin ayniqsa kuchayganini isyonkor deb topilgan uchta qishloq o'rnida 1893-yil "Russkoe" nomli seloni barpo etish tajribasi yaqqol ko'rsatdi.

Bu yerda 201 rus oilaga 201 desyatina tomorqa, 1177 desyatina dehqonchilikka yaroqli yer, 436 desyatina yaylov va 86 desyatina bedazor yerlar berildi. Bu ko'rsatkichlar O'sh va Namangan uyezdlarida 80-yillarda tashkil topgan Nikolaevskoe hamda Uspenskoe selolarida joylashtirilgan 264 rus oilaga berilgan turli yerlar maydonidan 2,5 barobar kam edi, lekin 90-yillarda Farg'ona oblastida yuqori ko'rsatkichlar edi.

Krasnovodsk-Samarqand temir yo'lining o'tkazilishi (1883-1887-y.) Kaspiyorti va Samarqand oblastlariga, Amudaryo bo'limi hududiga va Buxoro amirligidan zo'rlik bilan tortib olingan yerlarga (Kogon, Chorjo'y, Karki va h.k.) rus aholini ko'chirish, joylashtirish ishini ancha osonlashtirdi. Paydo bo'lgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga Rossiya imperatorining Kaspiyorti oblastining qulay joylariga ruslarni ko'chirish to'g'risidagi 1892-yildagi farmoni ham jiddiy omil bo'ldi.

Bu farmonga binoan shu oblastga ko'chib kelganlar 10 yil mobaynida barcha soliqlardan, har xil majburiy xizmatlardan, jumladan, harbiy xizmatdan ham ozod etilardi va har bir oilaga joylashib olish uchun 100 rubl yordam sifatida berilar edi. Natijada, 1900-yilgacha Kaspiyorti oblastida (1882-yildan 1898-yilgacha Kavkaz noibligi tarkibida bo'lgan) o'nlab temir yo'l stansiyalari yonidagi va baliqchilar posyolkalaridan tashqari 20 dan ortiq rus dehqonlarining selenyalari paydo bo'ldi, rus, ukrain, belorus aholining umumiy soni esa 35 mingta yetdi.

Turkistonga Rossiyadan aholini ko'chirib keltirish va imtiyozli joylashtirish bilan bog'liq qoidalarni, qonunlarni, farmonlarni bajarish, turli chora-tadbirlarni amalga oshirish tufayli o'lkaning asosiy — Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona oblastlarida 200 ga yaqin rus dehqonlarining selenyalari tashkil qilindi; rus, ukrain, belorus aholining soni esa 200 mingdan oshdi, uning 13 foizdan sal ko'prog'i shaharlarda yashagan.

Rossiyadan ko'chib kelgan kazaklarni, rus dehqonlarni ta'minlash maqsadida XX asr boshlarigacha mahalliy aholidan:

Yettisuv oblastida: 752 197 desyatina;

Sirdaryo oblastida: 159 561 desyatina;

Farg'ona oblastida: 9 925 desyatina;

Samarqand oblastida: 22 907 desyatina;

Kaspiyorti oblastida: 10 318 desyatina er tortib olindi.

Shu bilan bir qatorda Turkistonda rossiyalik sanoatchilar, savdogarlar, tadbirkorlar faoliyatini rag'batlantiruvchi turli imtiyozlar — rus ishchilarining mehnat haqi mahalliy ishchilarnikidan 2-3 barobar ortiqligi va boshqa shart-sharoitlar shaharlarda, tog'-kon korxonalar, temir yo'l stansiyalari yonidagi posyolkalarda yashovchi rus aholining turmush darajasi tub aholinikidan ancha yuqori bo'lishini ta'minlagan. Rossiyadan ko'chib kelib 2-3 yil mobaynida qo'nim topmasdan, to'g'ri kelgan ishga yollanib, zo'rg'a kun kechirganlar ham bo'lgan. Masalan, rus aholini ko'chirish bilan shug'ullanuvchi boshqarma mudiri Turkiston general-gubernatorining devoniga yozganidek, «o'lkada yer olishga da'vogarlar orasida ilgari ko'chib kelgan ersizlar ko'p. Ularning orasida urush qatnashchilari va Turkiston Harbiy okrugining zaxiradagi soldatlari ham bor». Lekin ma'muriyat har qanday choralar bilan ularni ham joylashtirish, barcha imkoniyatlarni yaratib berishni uddasidan chiqqan.

Turli sabablar oqibatida, Turkistondagi shaharlik va qishloq rus aholi orasida ijtimoiy tabaqalanish sodir bo'lgani ob'ektiv jarayon natijasidir. Juda yirik mablag'lar egalari ham, o'rta hol ishchi va dehqonlar ham rus (ukrain, belorus) aholining aksariyatini tashkil qilgan holda, Turkistonning Sirdaryo (asosan, Toshkent shahri tufayli), Samarqand, Farg'ona oblastlari iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan Yettisuv va Kaspiyorti oblastlaridan ancha ko'proq rivojlangani bois o'sha asosiy oblastlarda ijtimoiy tabaqalanish mahalliy aholi orasida ham, metropoliyadan ko'chib kelgan aholi orasida ham kuchliroq, chuqurroq edi. Rus aholining turmush darajasi uyezdlar bo'yicha ham farqlanar edi.

Turkiston oblastlari orasida tub aholining soniga nisbatan rus aholining salmog'i 1897-yil Yettisuv oblastida 9,66 foizni (95465 kishi), Kaspiyorti oblastida 8,7 foizni (33273 kishi) tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo oblastida 3,03 foizni (44834 kishi), Samarqand oblastida 1,63 foizni (14006 kishi), Farg'ona oblastida atigi 0,63 foizni (9842 kishi) tashkil etgan. Andijon qo'zg'olonidan keyin 2-yil mobaynida Farg'ona oblastiga deyarli 4 ming rus dehqonlari ko'chirib keltirildi.

Boshqa oblastlarga qaraganda Farg'ona oblastida musodara qilingan, zo'rlik bilan tortib olingan va rus aholiga taqsimlanib berilgan yer uncha ko'p bo'lmasa-da ruslarning aksariyati (9 mingdan ortiq) zamonaviy paxta tozalash zavodlarida, neft va tog' konlarida, politsiya, sud boshqaruv mahkamalarida band bo'lganligini hisobiga olsak, ular moddiy jihatdan yaxshi yashagan. Bunga «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida» 1894-yilda qabul qilingan qonunning 15-moddasi ham muhim omil bo'lgan, chunki unga binoan ko'chmas mulkni sotib olish, zamonaviy texnika bilan jihozlangan korxonalarda ishlash, tog'-konlarga ega bo'lish huquqlari birinchi navbatda ruslarga berilgan edi.

Xulosa. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy mafkurani shakllantirish, tarixiy haqiqatni va xalqning tarixiy xotirasini tiklash ehtiyojlari Vatan tarixshunosligining juda kam o'rganilgan yoki tadqiq qilingan, noto'g'ri yoritilgan mavzularni rosmana ta'riflash zaruriyati

ilmiy tarixiy tadqiqotlarning miqyosini ancha kengayishini tarix haqiqatini xolis o'rganilishini taqozo etmoqda.

Bu xususiyatlar keyingi yillarda paydo bo'lgan jiddiy imkoniyatlar (tashkiliy, metodologik va h.k.) ham ilmiy ijodni, turli tadqiqotlarni yanada faollashtirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tarixi fanida sodir bo'layotgan yangilanish jarayoni bilan bevosita bog'liq holda mazkur monografiyada ilgari sinfiy va buyukdavlatchilik nuqtai nazaridan yoritilgan muammo – chorizmning mustamlaka Turkistonga aholini ko'chirish siyosatini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilingan.

Ma'lumki, rus dehqonlari, shahar kambag'allari va kazaklarning metropoliyadan Turkistonga, Buxoro amirligi va Xiva xonligidan tortib olingan hududlarga, Rossiya imperiyasi alohida general-gubernatorlikka aylantirilgan mustamlaka, qaram bo'lib qolgan o'lkaga aylantirilishi uning asosiy sabablari tahlil va tadqiq qilinishi natijasida Dasht o'lkasiga aholini ko'chirib keltirish masalasi to'liq va asosli tadqiq qilingan mustamlaka va sovet davrlari ijtimoiy-siyosiy adabiyotda hamda vaqtli matbuotda, ilmiy ishlarda garchi Rossiyaning mintaqadagi ko'chirib keltirish siyosati, umuman, hukmronlikdagi ayrim illatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, O'rta Osiyodagi «sivilizatorlik» missiyasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilingan. Bunda rus aholisining kattagina qismini Turkistonga ko'chib kelishi Rossiyada krepostnoylik huquqining bekor qilinishi, ichki guberniyalarida ortiqcha qishloq aholisi soni ko'payib ketganligi, qurg'oqchilik yillarida Volgabo'yi, Orenburg guberniyasi aholisining najot istab kelishi natijasi sifatida ta'riflanib, aholini ko'chirib keltirish borasidagi harakatlar esa sobiq sovet amaliyotiga monand tarzda tahlil qilinib, o'lkada boshqa mintaqalardan qochgan aholi soni ko'payib ketishi, uning indu striyalash, qishloq xo'jaligining jamoalashtirish madaniy o'zgarishlardagi ishtiroki «zarur» bo'lganligi bilan izohlendi. Mustamlaka davridagi ko'chiruvchilik siyosatining, shu jumladan, kazaklar koloniyalarini tashkil qilishdagi salbiy hodisalarni, ularning tub aholi uchun siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy oqibatlarini ko'rsatish haqida esa fikrlar bo'lishi mumkin bo'lmagani tushunarli, albatta. To'g'ri, bunday yondashuv 40-yillargacha adabiyotda, asosan, Turkistonning Rossiya imperiyasiga «qo'shib olingani» emas, balki «bosib olingani» bilan izohlansa, yanada aniqroq tasavvurga ega bo'lamiz.

Mazkur maqolada, nazarimizda, turli ijtimoiy-siyosiy holatlarni hisobga olgan holda, ko'plab arxiv materiallari hamda boshqa manbalar asosida tanlangan mavzuning asosiy masalalari tadqiq etildi. Tarixiy tajribaning o'rganilishi, aholini ko'chirib keltirish amaliyotining, Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarning Turkistonni har tomonlama mustamlakaqa aylantirishdagi, tub aholiga siyosiy, ijtimoiy va milliy zulm o'tkazishdagi bevosita ishtirokining mazmunan muhim va uzoq muddatli oqibatlarini tahlil etilishi tub xalqlar hayotidagi ko'plab voqealarni, chuqur o'zgarishlarni chinakam manzarasini imkoni boricha to'la va haqqoniy ko'rsatish uchun xizmat qildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Milliy Arxivining (O'zMA) fondlari: xususan, "Turkiston general-gubernatori devoni", "Sirdaryo/Farg'ona viloyati boshqarmasi" hujjatlari.
- 2.Mustamlaka davri adabiyoti: Chor Rossiyasi davrida yozilgan "sivilizatorlik" g'oyasidagi asarlar.
- 3.Sovet davri tarixshunosligi: 1940-yillargacha va undan keyingi davrda mavzuni "sinfiy kurash" yoki "ixtiyoriy qo'shilish" nuqtayi nazaridan yoritgan tadqiqotlar.

4.Zamonaviy O'zbekiston tarixshunosligi: Mustaqillikdan keyin arxiv materiallari asosida yozilgan yangi avlod monografiyalari (matnning o'zi ham shu turkumga kiradi).



INNOVATIVE
ACADEMY